

BOBUR IJODINI O’RGANISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA

Boltayeva Saidaxon Lutfullayevna

*Namangan viloyati Chust tuman 2-sون kasb-hunar politexnikumi
Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, "Tillar" kafedrasi mudiri*

Annotatsiya: "Boburnoma" asari jahon adabiyoti manbaashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik. Shu bilan birga, o'zbek adabiyotidagi dastlabki nasriy-memuar, tarixiy-ilmiy asar sifatida o'rganib kelinmoqda. Asarda, ijtimoiy-tabiyy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta'limoti, tilshunoslik, jug'rofiya, tabiatshunoslik, ma'danshunoslik, dehqonchilik, bog'dorchilik va boshqalarga oid aniq va hanuzgacha o'z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan ma'lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan.

Tayanch so'z va iboralar: "Boburnoma", geografiya, adabiyot, tarix, tilshunoslik, "Mubayyin", "Xatti Boburiy", Buyuk ipak yo'li integratsiya.

O'zbek adabiyoti, san'ati va madaniyati tarixida o'ziga xos o'rinni tutgan siymolardan biri buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburdir.

U 1483yilning 14- fevralida Andijonda tavallud topib, 1530 yil 26-dekabrda Agrada vafot etgan. Bobur Mirzo ulug' shoir va adib, qomusiy ilm sohibi, ayni zamonda mohir lashkarboshi va davlat arbobi ham edi. Uning she'riy devoni, «Boburnoma», «Aruz risolasi», «Xatti Boburiy», «Mubayyin» kabi ilmiy va badiiy barkamol asarlari bizgacha yetib kelgan. Bu asarlarning har biri o'zbek nazmi va nasri rivojida muhim bir bosqichni tashkil etadi.

Biz quyida ko'rmoqchi bo'lgan «Boburnoma» asari ham O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston tarixi, jo'g'rofiyasi, etnografiyasi, o'simlik va hayvonot olami, xalqi, odamlarining kasb-kori, tili, hayot tarzi va boshqa xislatlari haqida beباho ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan buyuk qomusiy asardir. Shuning uchun ham «Boburnoma» ko'p asrlardan beri Sharq va g'arb tarixchilari hamda boshqa fan sohalari vakillarining diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Bizga shunisi ma'lumki, «Boburnoma»-memuar asar. Bunday asar, odatda, muallifning davr-zamonda, o'tmishga oid xotiralarini, ko'rgan va eshitganlarini ma'lum tartibga solib ifoda etishi natijasida vujudga keladi. «Boburnoma» faqat tarixiy asar emas, balki unda o'sha davrdagi bir qator fanlar (tabiatshunoslik, biologiya, zoologiya, etnografiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik) ga oid ma'lumotlar uchraydi. Masalan, tarixchi o'sha davrdagi O'rta Osiyo, Xuroson, Afg'oniston, Hindiston tarixiga tegishli muhim ma'lumotlarga ega bo'lsa, tabiatshunos mazkur o'lkalarning topografiyasi, iqtisodiy jo'g'rofiyasiga doir yangiliklarga ega bo'ladi. Birgina misol, muallif asarida Kobul viloyatini tasvirlar ekan. Uning jug'rofiy o'rni, chegaralari, yaylovleri, o'simlik va mevalari, daryo va ko'llari, xalqi, uning kasb-kori, urf-odati, tili, savdo-sotiq ishlari va

boshqalar haqida bat afsil ma'lumot beradi: «Muhtalif aqvom Kobul viloyatida bordir. Tulgasida va tuzlarida atrok va aymok va ayorobdur□ SHahrida va ba'zi kenglarida sortlardur. Yana ba'zi kenglarida va viloyatida pashshoyi va paroziy va tojik va baraki va afg'ondur. /arbiy tog'larida hazora va naqdariydur. Bularning orasida ba'zi mo'g'uliy til bila hikoyat qilurlar□ Nijrov tog'larida lo'cha qushi ham bo'lar, bu qushni buqalamun derlar, boshdin quyrug'igacha besh-olti muhtalif rangi bor, kabutarning bo'ynde barroqdur. Boron yoqasida qishning oxirlarida o'rdak qalin kelur, bisyor semiz bo'lur, andin so'ng turna va qarqara. Ulug' qushlar qalin va behad bo'lur□»

Bundan tashqari, Bobur tarixiy voqealarni sanab o'tish yoki ular haqida ma'lumot berish bilan cheklanmaydi, balki u tarixiy shaxslarning portret iva xarakterini, tabiat lavhalarini chizib beradi, maroqli va jozibali badiiy uslub bilan turli xil sarguzashtlarni, rivoyat va latifalarni beradi, xalq yumori, xalq maqoli va ta'birlari bilan, she'riy parchalar bilan o'z asarini bezaydi, turli xil badiiy usul va til vositalaridan foydalanadi. Masalan, asarda quyidagi matal va hikmatli so'zlarni uchratish mumkin:

«Gah yozdah beh, gah to'x - goh o'n bir yaxshi, goh to'qqiz. Darvozai shahrro tavon bast, natvon dahani muholifon bast - shahar darvozasini yopib bo'ladiq-yu, dushman og'zini yopib bo'lmaydi. Dushman ne demas, tushga ne kirmas. Zikri nomero hakimon umri soniy quftaand - shuhrat Bilan yodlanishni hakimlar ikkinchi umr demishlar. Ishonmagil do'tingga, somon tiqar po'stingga. Marg bo yoron tuz ast. Yomon ot bilan tirilgandan ko'ra. Yaxshi ot bilan o'lgan afzal va hokazo».

Asarni sinchiklab o'qir ekanmiz, undagi voqealar turli vaziyatlarda va ziddiyatlar orqali rivojlanib boradi. Ular bir-biri bilan ana shu voqealarda bevosita ishtirok etgan Bobur siyoshi orqali bog'lanadi, o'ziga xos kulminatsiya va yechim kasb etadi. Mana shu xususiyatlar bilan «Boburnoma» kitobxonni zavq va hayajonga soladi, uni o'ziga butunlay maftun etadi. «Boburnoma»da juda ko'p tarixiy shaxslarning shakl-shamoyillari va ruhiyatları mohirona chizilgan, ularning xatti - harakatlari, faoliyatları bayoni orqali shaxsiy xususiyatlari ochib berilgan. Tarixiy shaxslarning qiyofalari va fazilatlarini yoritganda muallif ularga nisbatan haqqoniy munosabatda bo'lishga, ularning yashash tarzi va sharoitidan kelib chiqib, fe'l-atvorining eng muhim jihatlarini mumkin qadar aniq va ixcham iboralarda, lo'nda ifodalashga harakat qiladi. U Husayn Boyqaroni shunday ta'riflaydi:

«□qiyiq ko'zlik, sherandom bo'yliq kishi edi. Belidin quyi ingichka edi. Bovujudkim, ulug' yosh yashab, oq soqollik bo'lub edi, xushrang, qizil-yashil abrizimni kiyar edi. qora ko'zi bo'rk kiyar edi yo qalpoq. Axyoyan iydlarga kichik sepech dastorni yap-yassi namoyon chirmab, qarqara o'tag'asi sanchib namozga borur edi□»

Z.M.Bobur «Boburnoma» asaridan tashqari, musiqiy ilm, xarb ishiga oid qimmatli ilmiy asarlar ham yaratgan. Ular orasida Ayniqsa «Aruz risolasi» o'zbek

she'riyati nazariyasini o'rganishda muhim o'rinni egallaydi. Boburning bu risolasi Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» asaridan so'ng turkiy tilda aruz vazni haqida yozilgan ikkinchi yirik tadqiqot bo'ldi. Bu yirik majmuada XIV-XVI asrlarda yashagan 60 dan ortiq shoirlar nomi keltiriladi va asarlaridan parchalar beriladi. Mazkur asar o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning she'riyat nazariyasi tarixini o'rganishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Z.M.Bobur ijodi nafaqat adabiyotshunoslik, balki boshqa fanlar rivojiga ham ulkan xissa qo'shdi. Shuning uchun ham uning nodir asarlari turli tillarga tarjima qilinib, jahon adabiyoti xazinasidan munosib o'rinni oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

"Boburnoma", O'zbekiston tarixi, Geografiya, O'zbek adabiyoti tarixi, Tilshunoslik, Ona tili va adabiyoti (Rafiyev va boshqalar), Dars samaradorligini oshirish uslubiy qo'llanmasi (S. Boltayeva)